



# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

## Doimiy aholi soni.

Namangan viloyati doimiy aholisi soni 2022- yil 1- yanvar holatiga 2931,1 ming kishini tashkil etib, 2021-yil boshidan 63,6 ming kishiga yoki 2,2 % ga o'sdi. Jumladan, shahar aholisi soni 1899,5 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 64,8 %), qishloq aholisi soni 1031,6 ming kishini (35,2 %) tashkil etdi.

## E'tibor bering: 2021- yil yanvar-dekabr


- Aholi soni **63,6 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **80,0 ming nafarni** tashkil etdi.
- **13,5 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **25,0 mingta nikoh** va **3,2 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

## Namangan viloyati aholisining umumiy o'sishi (2021- yil yanvar-dekabr oylarida)




## Demografik holat

### Namangan viloyati bo'yicha aholi zichligi (2022- yil 1- yanvar holatiga, 1 kv.km.ga kishi)



Aholi zichligi bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, Namangan viloyati bo'yicha 1 kv.kmga 393,8 kishi, aholining eng zich joylashuvi Namangan shahri (1 kv.kmga 4407,3 kishi), Namangan (904,6 kishi), To'raqo'rg'on (856,1 kishi) va Norin (817,3 kishi) tumanlarga to'g'ri kelgan

### Namangan viloyati doimiy aholisi soni



## Demografik holat

### Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskul-larning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

**Tug'ilish.** 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida 80,0 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsienti 27,6 promilleni tashkil etdi, hamda 2020 yilning mos davriga nisbatan 1,3 promillega oshganligi (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida 26,3 promille bo'lgan) kuzatildi.


O'g'il bolalar:  
41,3 ming nafar



Qiz bolalar:  
38,7 ming nafar



### Tumanlar (shahar) kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsienti (2021- yil yanvar-dekabr, 1000 aholiga nisbatan, promille)




## Demografik holat

**Vafot etganlar.** 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida 13,5 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsienti 4,7 promilleni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 60,5 %i - qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 8,5 %i - o'simtalardan, 5,3 %i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,1 %i - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 6,2 %i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,4 %i - yuqumli va parazitlar kasalliklaridan hamda 13,0 %i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (2021- yil yanvar-dekabr holatiga, jami vafot etganlarga nisbatan, %)




## Demografik holat

**Nikoh.** 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 25,0 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 8,6 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2020- yilning mos davriga nisbatan Namangan shaharida 0,6 taga, Pop tumanida 0,1 taga va Yangiyo'rg'on tumanida 0,2 mingtaga ko'paygan.

**Tumanlar (shahar) kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsienti**  
(2021- yil yanvar-dekabr holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)




## Demografik holat

**Nikohdan ajralishlar.** 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 3152 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsienti 1,1 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar sonida 2020- yilning mos davriga nisbatan Namangan shaharda 443 taga va Chust tumanida 101 taga ko'paygan.

**Tumanlar (shahar) kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsienti**  
(2021- yil yanvar-dekabr holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)





## Demografik holat

**Migratsiya.** 2021- yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 3,1 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 6,0 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 2,9 ming kishi bo'lib, 2020- yilning mos davrida minus 4,6 ming kishi bo'lgan.


### Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2020- yil yanvar-dekabr	2021- yil yanvar-dekabr
<b>Ko'chib kelganlar</b>	3,6	3,1
<b>Ko'chib ketganlar</b>	8,2	6,0
<b>Migratsiya saldosi</b>	-4,6	-2,9




## Demografik holat

### Tumanlar (shahar) kesimida ko'chib kelganlar soni



### Tumanlar (shahar) kesimida ko'chib ketganlar soni






## Demografik holat

**Namangan shahridagi demografik holat.** Namangan viloyatining markazi Namangan shahrining doimiy aholisi soni 2022- yil 1- yanvar holatiga 661,1 ming kishini tashkil etib, 2020- yilga nisbatan 16,3 ming kishiga yoki 2,5 % ga o'sgan.

### Namangan shahri aholisi tabiiy harakati



2021- yilning yanvar-dekabr oylarida 20,3 ming bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib mos ravishda tug'ilish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 31,0 promilleni tashkil etdi va 2020- yilga nisbatan 1,5 ga (2020- yilning mos davrida 29,6 promille bo'lgan) o'sdi.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida 3,4 ming ta o'lim qayd etilgan. O'lim koeffitsienti 5,1 promilleni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan — 0,0 promillega teng (2020- yilning mos davrida 5,1 promille bo'lgan).

FHDYO organlarida 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida 5451 ta nikoh va 854 ta nikohdan ajralishlar qayd etildi. 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 8,3 promilleni tashkil qilib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 0,6 promillega ko'paydi. (2020- yilning mos davrida 7,7 promille bo'lgan).

Nikohdan ajralish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 1,3 promilleni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 0,7 promillega (2020- yilning mos davrida 0,6 promille bo'lgan) o'sdi.

## Demografik holat

### Namangan shahridagi demografik holat.

